HALIMA SHE'RLARI VA BADIIY SAN'ATLAR

Haydarova Kamola G'anisher qizi
Talaba
Guliston davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Halima Xudoyberdiyeva ijodiyotini o‘rganish. Uning she'rlarida jozibadorlik, inson ruhiyatini erkinlik va komillikka yetaklovchi g‘oyalar timsoli. She'rlarda qo‘llanilgan badiiy san’at vositalarining qo‘llanilishi va ta'sir ko‘lami. Halima Xudoyberdiyeva ijodiyotining, adabiyot, insoniyat va kamolatga hissasi.

Kalit so‘zlar: ruhiyat, gulqaychi sohibasi, ichimdagi sher, tashbeh san'ati, uyg‘un tuyg‘ular, tirik so‘z.

Аннотация: В статье рассматривается творческое наследие Халимы Худойбердиевой. В её поэзии отражаются образы идей, ведущих человеческую душу к свободе и совершенству, а также очарование поэтического слова. Анализируется использование художественно-изобразительных средств и их влияние на восприятие читателя. Особое внимание уделяется вкладу поэтессы в развитие литературы, духовности и человеческого самосовершенствования.

Ключевые слова: душевность, владычица поэзии, внутренний лев, искусство сравнения, гармоничные чувства, живое слово.

Abstract: The article explores the creative legacy of Halima Khudoyberdiyeva. Her poetry embodies the charm of artistic expression and the ideas that guide the human soul toward freedom and perfection. The study analyzes the use and impact of poetic devices in her works. Special attention is given to the poet’s contribution to literature, humanity, and spiritual development.

Keywords: spirituality, mistress of poetry, inner lion, art of simile, harmonious feelings, living word.

Adabiyotimizda o‘chmas iz qoldirgan shoiramiz Halima Hudoyberdiyeva o‘zining yuksak did sohibasi, uyg‘oq vijdoni va tirik she'rlari bilan shuhrat qozongan. Halima Xudoyberdiyeva o‘zbek zamonaviy she’riyatining eng nozik, eng sezgir vakillaridan biridir. Uning she’rlari ayol qalbining dard va orzularini, inson ruhiyatining eng yashirin qatlamlarini badiiy jilolantirishi bilan ajralib turadi. Shoira nafaqat so‘z ustasi, balki milliy g‘urur, ma’naviyat va erkin fikr timsoli sifatida ham adabiyotimiz tarixida chuqur iz qoldirdi. Uning shoirlik missiyasi - so‘z orqali insonni uyg‘otish, ruhiyatga ta’sir etish va komillikka yetaklashdir.Halima Xudoyberdiyeva ijodi o‘zbek adabiyotida “ayol lirikasi”ning yangi ufqlarini ochdi. Shoira har bir she’rida o‘z qalbini, o‘z ruhini so‘zga aylantiradi. Uning satrlari orqali nafaqat shaxsiy dard, balki umuminsoniy tuyg‘ular, vatan sog‘inchi va erkinlikka

intilish tarannum etiladi. Shu bois Halima she’rlari o‘quvchini o‘ylashga, sezishga va his etishga majbur qiladi - u fikrni emas, tuyg‘uni boshqaradi.

Shoiraning adabiyot maydoniga kirib kelishi o‘zbek she’riyatida yangi ruh, yangi dard va yangi ohangni yuzaga chiqardi. Ijodining asosiy tamoyili - “so‘z orqali o‘zlikni anglash va boshqalarga anglatish” edi. U o‘z she’rlarida shaxsiy kechinmalar orqali jamiyat ruhiyatini ko‘rsatadi: ayolning dardini Vatan dardi bilan, ona ko‘ksini millat ko‘ksining iztirobi bilan qovushtiradi.

BATAMOM UYG’ONSAM… [1. 123-bet]

Turayotgan qushga
O’xshayman juda,
Qushlarga o’xshayman
Uyg’onayotgan.
Ba’zi tomirlarim
Hali uyquda,
Ba’zi tomirlarda
Qonlarim qotgan.

"Batamom uyg‘onsam" nomli she'rida o‘zining va jamiki insoniyatning vijdoni uyg‘onishi intizorlik bilan kutayotgani kuylanmoqda. Shoira o‘zini uyqudan uyg‘onayotgan qushga o‘xshatadi, endigina uyg‘onayotgan qush. Ba'zi tomirlarida qon qotib qolgan, harakatsiz va ba'zilari esa Hali hamon uhlamoqda. Har bir misra uyg‘oqlikka, vijdon va qalbni go‘yo oppoq qog‘ozdek asramoqqa undaydi.

Xas-xashaklar bilan
Sudralib yurib,
O’qlik orzusida
Ketib borar yoy.
O’zim-cha nelardur
G’udranib yurib,
Guldayin umrimni,
Bermoqdaman boy.

She'rning qolgan misralari ham alohida e'tiborga molik. Tiriklik bor ekan banda arzimagan, qadri xashakchalik muammolar bilan hayot yo‘llarida boradi. Yo‘l oxirida aniq bir maqsad haqiqiy mo‘minlik, lekin nolishlar, betoqatlik va qanoatsizlik-la bo‘lib guldayin umrimni boy berayotganligini ta'kidlamoqda. Aslini olganda hech bir dard alam, muammo yo‘qki umrimizdan azizroq bo‘lsa?. Insonlar dunyo uchun emas, dunyo insonlar uchun yaratildi va jonni fido aylamoq, umrni fido aylamoq arzimas.

Har bir misrada yaqqol seziladiki insonlarni komillik sari yetaklaydigan, ruhiyat va qalbini poklaydigan so‘zlar tizib chiqilgan. Bunday mahorat har kimda ham shakklanavermaydi. Satrlarga saralangan so‘zlar albatta Halimaning gulqaychisidan o‘tgan. She'rlarda g‘alizlik paydo qiladigan so‘zlar kiritilmagan, eng saralari jamlangan. O‘qiguvchi qalbini to‘lqinlantiradigan, jumbushga keltiradigan, hissiyotlar bo‘ronini yuvib yoboradigan so‘zlarning barchasini o‘z she'rida to‘plashni uddalay olgan. Yozuvchi O‘tkir Hoshimov yozganidek "har bir she'r shoirdan farzand kabi tug‘uladi ". [2] Halima xalqimizga va adabiyot ahllariga komillikka yetaklovchi farzandlardan minglab dunyoga keltirdi axir.

O’zimcha kimningdir
G’amini yedim,
Kimningdir kuniga
Yuribman yarab.
Batamom uyg’onib
Ololsam edi,

Uchib ketarmidim
Ko'klarga qarab.

Yozuvchi Qozoqboy Yo'ldoshev shoiramizni "Halima Xudoyberdiyeva – yuragida yo'lbars o'kirib, sirtdan mayin jilmaygan, yirik shaxsiyat egasi edi. Ammo shunday kuchli tuyg'ularini ham o'zbek ayoliga xos tarzda, andisha bilan aytardi" [3]deya ta'riflaydi. Halima yuragida shunday ulkan yo'lbars borki u hayqiradi, yozuvchini to'lg'ontiradi, tunlari uyqu bermaydi, yozishga undaydi. Ayollik nafosat va didi orqali nozik ammo tig'day o'tkir qalami orqali hayqiriqlarni noziklik bilan yoritib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xudoyberdiyeva, H. (1987). *Ichimdagi sher*. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
2. Karimov, I. (1999). *Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch*. Toshkent: Ma'naviyat.
3. Jo'rayev, S. (2010). *O'zbek ayol shoiralari ijodida ruhiy kechinmalar ifodasi*. Toshkent: Fan.
4. Abdullaeva, M. (2015). *H. Xudoyberdiyeva she'riyatida obrazlilik va badiiy vositalar*. – *Til va adabiyot ta'limi*, №4, 56–60-betlar.
5. Rasulova, N. (2020). *Zamonaviy o'zbek poeziyasida erkinlik g'oyasi va shaxs ruhiyati*. Toshkent: O'zMU nashriyoti.
6. Qodirova, D. (2021). *Halima Xudoyberdiyeva she'rlarida tashbeh va metafora san'ati*. – *O'zbek tili va adabiyoti jurnali*, №2, 43–48-betlar.
7. Yo'ldosheva, Z. (2023). *Ayol shoiralar ijodida milliylik va universallik uyg'unligi*. Guliston: GulDU nashriyoti.